Universitet Kengashining 2026-yil
1-iyuldagi majlisi 21-sonli bayonnomasiga
2-ILOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti talaba va tadqiqotchilarining shikoyatlari to‘g‘risida NIZOM

Toshkent davlat yuridik universiteti talaba va tadqiqotchilarining shikoyatlari to‘g‘risidagi nizom (keyingi o‘rinlarda − Nizom) O‘zbekiston Respublikasining ta’limga oid qonunchilik hujjatlari va Toshkent davlat yuridik universitetida sifatni ta’minlash haqidagi nizomda belgilangan prinsiplarning amaliy ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

I bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o‘rinlarda − universitet)da talaba va tadqiqotchilarning shikoyatlarini taqdim qilish, ko‘rib chiqish va hal etishga doir jarayonlarni tartibga soladi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

universitet – Toshkent davlat yuridik universiteti hamda uning tarkibiy bo‘linmalari;

tarkibiy bo‘linmalar – universitet tarkibidagi boshqarmalar, bo‘limlar, fakultetlar, shu’balar, markazlar va boshqa tarkibiy tuzilmalar;

xodim – professor-o‘qituvchilar tarkibiga kirmaydigan hamda universitet bilan mehnat shartnomasini tuzgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar;

ta’lim dasturi yo‘nalishi rahbari – professor-o‘qituvchilar tarkibidan tayinlanadigan, Yurisprudensiya bakalavriat ta’lim dasturining tegishli fakultetdagi yetakchisi; yo‘nalish rahbari tegishli dekanga hisob beradi hamda mazkur ta’lim dasturining tegishli fakultetda samarali va izchil o‘qitilishini ta’minlash, monitoring va tahliliy faoliyatni olib borishga mas’uldir;

ta’lim dasturi rahbari – professor-o‘qituvchilar tarkibidan bo‘lgan, bakalavriat (Yurisprudensiya bakalavriat ta’lim dasturi bundan mustasno) va magistratura ta’lim dasturining samarali va izchil o‘qitilishini, oliy ta’limdan keyingi ta’lim dasturining

samarali va izchil o‘zlashtirilishini ta’minlash hamda ta’lim dasturi bilan bog‘liq monitoring va tahliliy faoliyatni amalga oshirishga mas’ul shaxs;

modul rahbari – alohida modulni o‘qitishning sifati, o‘quv materialini shakllantirish, shuningdek barcha turdagi nazorat savollarini tuzish, talabalar bilimini tekshirishda yagona standartlarni ta’minlashga mas’ul bo‘lgan pedagog xodim;

shikoyat qiluvchi – ta’lim olish jarayoni bilan bog‘liq qonuniy huquq yoki manfaatlari buzilgan deb hisoblab shikoyat bergan talaba yoki tadqiqotchi;

shikoyat – universitet tomonidan yoki universitet nomidan ta’lim olish jarayoni bilan bog‘liq amalga oshirilgan harakat (harakatsizlik) yoxud ko‘rsatilgan xizmat sifatining qoniqarsizligi (xizmat standartlariga rioya etilmasligi) natijasida bir yoki bir necha talaba yoki tadqiqotchining buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to‘g‘risidagi talab bayon etilgan murojaat;

anonim shikoyat – talaba yoki tadqiqotchining familiyasi (ismi, otasining ismi), ta’lim to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilmagan yoxud ular to‘g‘risida yolg‘on ma’lumotlar keltirilgan, shuningdek shaxsni aniqlash imkonini bermaydigan elektron shikoyat yoki imzo (elektron raqamli imzo) bilan tasdiqlanmagan yozma shikoyat;

shikoyatning dublikati – aynan bir talaba yoki tadqiqotchi yoxud talabalar yoki tadqiqotchilarning shikoyati nusxasi;

takroriy shikoyat – avvalgi shikoyatlar bo‘yicha qabul qilingan qaror yuzasidan shikoyat qilingan yoki boshqacha tarzda norozilik bildirilgan, shuningdek, agar takroriy shikoyat kelib tushgan paytda ko‘rib chiqishning qonun hujjatlari va ushbu Nizomda belgilangan muddati tugagan bo‘lsa, avvalgi shikoyat o‘z vaqtida ko‘rib chiqilmaganligi haqida xabar qilingan, aynan bir talaba yoki tadqiqotchi yoxud talabalar yoki tadqiqotchilardan kelib tushgan murojaat;

elektron shikoyat – universitet rasmiy elektron pochtasi (info@tsul.uz) yoki universitet rektorining maxsus boti orqali kelib tushgan shikoyat;

muhokama tartibida shikoyatni hal etish – shikoyat predmeti bevosita bog‘liq bo‘lgan xodim yoki tarkibiy bo‘linma rahbari bilan bevosita muhokama (muloqot) orqali shikoyatni hal etish bosqichi;

talaba – universitet bakalavriati yoki magistraturasiga belgilangan tartibda qabul qilinib, ta’lim olayotgan shaxs. Mazkur Nizomda “talaba” tushunchasi belgilangan tartibda dars mashg‘ulotlariga qatnashishga ruxsat etilgan abiturientga hamda universitetda akademik mobillik dasturi asosida ta’lim olayotgan shaxsga nisbatan ham qo‘llaniladi;

tadqiqotchi – universitetga tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilikka belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs;

3. Shikoyatlar og‘zaki, yozma yoxud elektron shaklda berilishi mumkin.

4. Universitetning “ishonch telefoni”ga kelib tushgan shikoyatlar og‘zaki shikoyat sifatida mazkur Nizomda belgilangan tartibda qayd etiladi, ro‘yxatga olinadi va ko‘rib chiqiladi.

5. Ushbu Nizomning amal qilishi:

talabalarning oraliq va yakuniy nazorati natijalari yuzasidan shikoyatlariga;

talabalarning bitiruv malakaviy ishi mavzularini tasdiqlash, bitiruv malakaviy ishning himoyasi natijalari yuzasidan shikoyatlariga;

tadqiqotchilarning tadqiqot mavzularini tasdiqlash, ilmiy tadqiqot ishlarining himoyasi natijalari yuzasidan shikoyatlariga;

talaba va tadqiqotchining universitet bilan mehnat munosabatlari, shu jumladan mehnat shartnomasi, mehnat shartlari va ish haqi bilan bog‘liq shikoyatlariga;

ko‘rib chiqish tartibi ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi, fuqarolik protsessual, jinoyat-protsessual va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilangan shikoyatlarga.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan yo‘nalishlar bo‘yicha shikoyatlar tegishli qonunchilik hujjatlari yoki boshqa ichki normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

6. Universitetda shikoyatlarni ko‘rib chiqish va hal etish jarayonlari quyidagilarni nazarda tutadi:

muhokama tartibida shikoyatni ko‘rib chiqish va hal etish;

shikoyatni mazmunan ko‘rib chiqish va hal etish.

II bob. Talaba va tadqiqotchilarning shikoyat taqdim qilish huquqlari kafolatlari

7. Shikoyatlarni ko‘rib chiqish hamda hal etishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

ochiqlik va shaffoflik;

hisobdorlik;

shikoyatlarni to‘liq, xolis va o‘z vaqtida ko‘rib chiqish;

kamsitish va ta’qib etishga yo‘l qo‘ymaslik

8. Universitet va uning tegishli mas’ul xodimlari shikoyatlarni ko‘rib chiqishda to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishi uchun choralar ko‘rishi, talaba va

tadqiqotchilarning ta’lim jarayoni bilan bog‘liq buzilgan huquqlari hamda qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida choralar ko‘rishi shart.

9. Shikoyat taqdim qilish huquqi ixtiyoriy amalga oshiriladi. Hech kim biron-bir shikoyatni himoya qilishga yoxud unga qarshi qaratilgan harakatlarda ishtirok etishga majbur qilinishi mumkin emas.

10. Talaba va tadqiqotchilarni shikoyat taqdim qilganligi, shuningdek, shikoyatlarda o‘z fikrini bildirganligi va tanqid qilganligi munosabati bilan ta’qib etish man etiladi.

11. Shikoyat taqdim qilish huquqidan foydalanilayotganda talaba yoki tadqiqotchining jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyiga, va boshqa holatlariga qarab kamsitishga yo‘l qo‘yilmaydi.

12. Talaba va tadqiqotchilarga shikoyatni yakka tartibda yoki jamoaviy ravishda berish huquqi kafolatlanadi. Ikki va undan ortiq talaba yoki tadqiqotchining ta’lim olish jarayoni bilan bog‘liq buzilgan huquq va qonuniy manfaatlariga daxldor masala yuzasidan berilgan jamoaviy shikoyat ushbu Nizomda belgilangan umumiy tartibda ko‘rib chiqiladi. Jamoaviy shikoyat bo‘yicha javob, shikoyatda boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ro‘yxatda birinchi ko‘rsatilgan talaba yoki tadqiqotchiga yuboriladi.

III bob. Shikoyat taqdim qilish uchun asoslar

13. Mazkur Nizom doirasida talaba va tadqiqotchilarning ta’lim olish jarayoni bilan bog‘liq buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini tiklash yuzasidan shikoyat taqdim qilish asoslariga, jumladan, quyidagilar kiradi:

universitetning o‘z majburiyatlarini, shu jumladan ta’lim dasturi (yo‘nalishi) to‘g‘risidagi rasmiy ma’lumotlarda yoki me’yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmasligi;

universitet tomonidan reklama-targ‘ibot materiallari va qo‘llanmalarda noto‘g‘ri yoki chalg‘ituvchi axborot tarqatilishi;

ta’lim dasturining tashkil etilishi va olib borilishi, shu jumladan o‘qitish sifati yoki ilmiy rahbarlik bilan bog‘liq faoliyatlarda kamchiliklarga yo‘l qo‘yilishi;

universitet tomonidan taqdim etilayotgan infratuzilma, ta’lim resurslari yoki xizmatlar sifatining qoniqarsizligi;

universitet nomidan xizmat koʻrsatuvchi tashkilotlar yoki pudratchilar faoliyatining qoniqarsizligi, agar universitet bilan tegishli tashkilot yoki pudratchi oʻrtasidagi shartnomaga koʻra bunday shikoyatlarni qabul qilish va koʻrib chiqishda universitet vakolatli tashkilot sifatida belgilangan boʻlsa.

IV bob. Shikoyatni muhokama tartibida koʻrib chiqish va hal etish

14. Muhokama tartibida koʻrib chiqish talaba yoki tadqiqotchi uchun ixtiyoriy boʻlib, shikoyat predmeti bevosita bogʻliq boʻlgan tarkibiy boʻlinma bilan dastlab hal etishni nazarda tutadi.

15. Talaba yoki tadqiqotchi shikoyatni shaxsan muhokama tartibida ogʻzaki, xohishiga koʻra esa yozma shaklda taqdim etishi mumkin.

16. Shikoyat qiluvchi bilan aloqani ta’minlash hamda shaxsiga aniqlik kiritish maqsadida shikoyatda talaba yoki tadqiqotchining familiyasi (ismi, otasining ismi) hamda ta’lim toʻgʻrisidagi ma’lumotlari koʻrsatilishi lozim. Shikoyat qiluvchining iltimosiga koʻra uning shaxsiga doir ma’lumotlar oshkor etilmaslik choralari koʻriladi.

17. Modul yoki ta’lim dasturi (yoʻnalishi)ni tashkil etish bilan bogʻliq shikoyatlar tegishli modul rahbari, ta’lim dasturi yoki ta’lim yoʻnalishi rahbari bilan, koʻrsatilgan xizmat sifatining qoniqarsizligi (xizmat standartlariga rioya etilmasligi) bilan bogʻliq shikoyatlar esa tegishli xodim yoki tarkibiy boʻlinma rahbari bilan muhokama tartibida hal etiladi.

18. Shikoyatni qabul qilgan xodim uni mustaqil ravishda oʻrganadi, zarur boʻlganda oʻzining bevosita rahbari bilan muhokama qiladi, vaziyatga oid barcha holatlarni aniqlash maqsadida talaba yoki tadqiqotchi bilan muloqot qiladi hamda zarur ma’lumotlarni toʻplaydi.

19. Muhokama tartibida hal etish shikoyatni tezkor, joyida hal etishga qaratilgan jarayon boʻlib hujjatlarni roʻyxatga olish elektron jurnalida qayd etiladi, joyida hal qilingan shikoyatlar uchun yozma javob talab etilmaydi. Joyida hal etilmagan yoki hal etish imkoni mavjud boʻlmagan taqdirda, qoida tariqasida, uzogʻi bilan oʻn besh kun ichida shikoyat qiluvchiga yozma yoki elektron shaklda hal qiluv natijasi yuboriladi.

20. Talaba yoki tadqiqotchi muhokama tartibida hal etish jarayoni natijasidan qoniqmagan yoki undan foydalanmagan taqdirda, istalgan vaqtda shikoyatni mazmunan koʻrib chiqish uchun tegishli mas’ul tarkibiy boʻlinmaga murojaat qilishi mumkin.

21. Muhokama tartibida hal etish bosqichida talaba yoki tadqiqotchining shikoyatida qo‘yilgan, hal etilishi o‘z vakolati doirasiga kiradigan masala bo‘yicha tegishli tarkibiy bo‘linma o‘z vaqtida zarur choralarni ko‘rmagan va shikoyatni o‘z vakolati doirasida hal etish imkoni bo‘la turib hal etmagan taqdirda, tegishli tarkibiy bo‘linma (uning rahbari) belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

V bob. Shikoyat berish va uni ko‘rib chiqish

22. Talaba va tadqiqotchi shikoyatni:

yozma shaklda;

universitetning rasmiy elektron pochtasi (info@tsul.uz) yoki rektorning maxsus boti orqali;

universitetning ishonch telefoni orqali;

rektor, prorektorlar yoki fakultet dekanlari tomonidan o‘tkaziladigan shaxsiy qabul hamda uchrashuvlar vaqtida og‘zaki taqdim etishi mumkin.

23. Shikoyatda quyidagilar ko‘rsatiladi:

– talaba yoki tadqiqotchining familiyasi (ismi, otasining ismi) hamda ta’lim to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

– shikoyatning mohiyati;

– shikoyatni asoslovchi hujjatlar (mavjud bo‘lsa);

– shikoyatni muhokama tartibida hal etish bosqichidan foydalanilganligi (mavjud bo‘lsa);

– shikoyat berilgan sana va talabaning imzosi.

24. Shikoyat talaba yoki tadqiqotchining ta’lim jarayoni bilan bog‘liq huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzuvchi harakat (harakatsizlik) yoxud qaror ma’lum bo‘lgan kundan e’tiboran uzog‘i bilan uch oy ichida beriladi. Shikoyatda ko‘rsatilgan vajlarning jiddiyligi yoki shikoyat berishning muddati uzrli sabablarga ko‘ra o‘tkazib yuborilgan holatda tegishli prorektor tomonidan tiklanadi.

25. Rektor, prorektorlar yoki fakultet dekanlari tomonidan shaxsiy qabul va uchrashuvlar vaqtida qabul qilingan og‘zaki shikoyatlar, qoida tariqasida, joyida hal etiladi; bunday hollarda yozma javob talab etilmaydi. Joyida hal etish imkoni bo‘lmagan yoki muhokama tartibida hal etish bosqichida shikoyat hal qilinmaganlik holatlari aniqlansa shikoyat uchrashuv (qabul) bayonnomasida qayd etiladi, o‘sha kuni ro‘yxatga olinadi hamda ushbu Nizomda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqiladi.

26. Kelib tushgan shikoyatlarni roʻyxatga olish va koʻrib chiqish universitet rektorining Toshkent davlat yuridik universitetida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish toʻgʻrisidagi yoʻriqnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

27. Kelib tushgan shikoyat universitet rahbariyatining rezolyutsiyasi (ustxati)ga muvofiq tegishli mas'ul tarkibiy boʻlinmaga (boʻlinmalarga) ijro uchun yuboriladi. Bevosita rektorga boʻysunuvchi tarkibiy boʻlinma yoki uning rahbari ustidan shikoyat berilgan taqdirda, bunday shikoyat rektorning rezolyutsiyasiga muvofiq teng vakolatli boshqa tarkibiy boʻlinmaga xolisona koʻrib chiqish uchun yuboriladi.

28. Mazkur Nizom tatbiq etiladigan munosabatlar yuzasidan berilgan shikoyatda universitet tarkibiy boʻlinmasi yoki uning xodimi (professor-oʻqituvchisi)ning xatti-harakati (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilingan boʻlsa, bunday shikoyatni koʻrib chiqish oʻsha tarkibiy boʻlinmaga yoki xodimga (professor-oʻqituvchiga) topshirilishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

29. Shikoyat universitetga kelib tushgan kundan e'tiboran oʻn besh kun ichida, qoʻshimcha oʻrganish va (yoki) tekshirish, qoʻshimcha hujjatlarni soʻrab olish talab etilganda esa bir oygacha boʻlgan muddatda koʻrib chiqiladi.

30. Agar shikoyatni koʻrib chiqish jarayonida aynan bir talaba yoki tadqiqotchi yoxud talabalar yoki tadqiqotchilar tomonidan shikoyatning dublikati kelib tushsa, ushbu shikoyat avval tushgan shikoyat bilan birgalikda koʻrib chiqiladi hamda natijasi boʻyicha yagona javob beriladi.

31. Agar shikoyatning dublikati shikoyat koʻrib chiqilganidan va javob yuborilganidan keyin kelib tushsa, bu haqda mas'ul tarkibiy boʻlinma xodimi shikoyat qiluvchini yozma tartibda xabardor qiladi.

32. Shikoyatni koʻrib chiqish natijalari boʻyicha mas'ul ijrochi (tarkibiy boʻlinma) tomonidan xulosa tayyorlanadi. Xulosada shikoyatda koʻrsatilgan har bir masala boʻyicha vajlarni rad etuvchi yoki tasdiqlovchi aniq asoslar boʻlishi lozim.

33. Shikoyatni koʻrib chiqish natijalariga koʻra qabul qilingan qaror toʻgʻrisida shikoyat qiluvchiga darhol yozma yoki elektron shaklda xabar qilinadi. Shikoyatga javob universitet rektori yoki tegishli prorektor tomonidan imzolanadi.

34. Shikoyat, unda koʻtarilgan barcha masalalar xolisona va toʻliq koʻrib chiqilgan hamda shikoyat qiluvchiga tegishli javob yuborilgan taqdirda koʻrib chiqilgan hisoblanadi. Javob yuborilgan kun shikoyatni koʻrib chiqish tugallangan kun hisoblanadi.

35. Talaba yoki tadqiqotchi tegishli qarordan qoniqmagan taqdirda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda yuqori turuvchi organga yoki sudga murojaat

qilishga haqli. Talaba yoki tadqiqotchiga javob bilan bir qatorda, ushbu huquqdan foydalanish tartibi tushuntiriladi.

36. Quyidagi shikoyatlar koʻrib chiqilmaydi:

anonim shikoyatlar;

shikoyatda bila turib yolgʻon maʼlumotlar keltirilgani, tuhmat yoki haqorat belgilari mavjudligini tasdiqlovchi dalillar mavjud boʻlsa;

mazkur Nizomda belgilangan talablarga muvofiq boʻlmagan shikoyatlar.

37. Shikoyat koʻrmay qoldirilganda tegishli xulosa tuziladi va u universitet rektori yoki tegishli prorektor tomonidan tasdiqlanadi.

38. Shikoyatni koʻrib chiqish uchun masʼul boʻlgan xodim ikki kunlik muddatda shikoyatni anonim deb topish toʻgʻrisida xulosa tuzadi hamda rektor yoki tegishli prorektor tomonidan tasdiqlanadi. Xulosada shikoyatni anonim deb topish asoslari toʻliq koʻrsatilishi shart.

39. Shikoyatlarni koʻrib chiqish quyidagi hollarda tugatiladi:

agar takroriy shikoyatlarda yangi vajlar yoki yangidan ochilgan holatlar keltirilmagan boʻlsa, ilgarigi shikoyat materiallarida esa tekshiruvlarning toʻla-toʻkis materiallari mavjud boʻlsa va shikoyat qiluvchiga belgilangan tartibda javoblar berilgan boʻlsa;

agar shikoyat qiluvchi oʻz shikoyatini belgilangan tartibda chaqirib olgan boʻlsa yoki uni koʻrib chiqishni tugatish toʻgʻrisida iltimos qilgan boʻlsa;

koʻrib chiqish jarayonida mazkur Nizomning 36-band uchinchi xatboshisiga muvofiq dalillar aniqlansa;

agar shikoyat qiluvchi vafot etganidan soʻng shikoyatni koʻrib chiqish huquqiy vorislikka yoʻl qoʻymasa.

40. Shikoyat koʻrib chiqishni tugatish toʻgʻrisidagi qarorni rektor yoki tegishli prorektor qabul qiladi.

VI bob. Shikoyat qiluvchilarning huquqlari

41. Shikoyat qiluvchi quyidagi huquqlarga ega:

shikoyatni koʻrib chiqishning borishi toʻgʻrisida axborot olish;

oʻz vajlarini shaxsan bayon etish va tushuntirishlar berish;

shikoyatni koʻrib chiqish materiallari va natijalari bilan tanishish;

qoʻshimcha materiallar taqdim etish;

shikoyatga javobni tushuntirish va (yoki) uni tuzatish toʻgʻrisida iltimos qilish;

o‘z shikoyatini u bo‘yicha qaror qabul qilinguniga qadar yozma yoki elektron shaklda ariza berish yo‘li bilan chaqirib olish;

shikoyatni ko‘rib chiqish natijalari ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

VII bob. Shikoyatlarni ko‘rib chiqishda universitet huquq va majburiyatlari

42. Shikoyatlarni ko‘rib chiqishda universitet quyidagi huquqlarga ega:

shikoyatni ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan axborotni belgilangan tartibda so‘rash va olish;

shikoyat qiluvchi yo‘qligida shikoyatni ko‘rib chiqish mumkin bo‘lmaganda yoxud shikoyatni eshitish uchun chaqirish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

43. Universitet hamda uning tarkibiy bo‘linmalari:

mazkur Nizom talablariga rioya etishi;

shikoyat qiluvchiga uning ta’lim olish jarayoni bilan bog‘liq huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta’minlashi;

shikoyat qiluvchiga ko‘rib chiqish natijalari hamda qabul qilingan qaror haqida shikoyat ko‘rib chiqilganidan so‘ng yozma yoxud elektron shaklda darhol xabar qilishi;

shikoyatni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra qabul qilingan qarorning ijrosini nazorat qilishi;

taqdim etilayotgan xizmat sifatining qoniqarsizligi yuzasidan darhol chora-tadbirlar ko‘rishi, ta’lim oluvchilarning ta’lim olish jarayoni bilan bog‘liq huquq va qonuniy manfaatlari buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablar va sharoitlarni o‘z vakolatlari doirasida aniqlashi;

universitet tomonidan yoki universitet nomidan ta’lim olish jarayoni bilan bog‘liq amalga oshirilgan harakat (harakatsizlik) yoxud ko‘rsatilgan xizmat sifatining qoniqarsizligi (xizmat standartlariga rioya etilmasligi) natijasida talaba yoki tadqiqotchining huquqlari hamda qonuniy manfaatlari buzilishi natijasida moddiy zarar yoki ma’naviy ziyon yetkazilgan bo‘lsa, qonunda belgilangan tartibda moddiy zararning o‘rnini qoplash yoki ma’naviy ziyonni kompensatsiya qilish choralarini ko‘rishi shart.

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

VIII bob. Shikoyatlarning ko‘rib chiqilishini monitoring va nazorat qilish, umumlashtirish va tahlil qilish

44. Universitet tarkibiy bo‘linmalarining rahbarlari o‘z bo‘linmalariga oid shikoyatlarning to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini ta’minlash choralarini ko‘radi.

45. Muhokama tartibida hal etish bosqichi orqali kelib tushgan, ko‘rilgan, hal qilingan (qilinmagan) shikoyatlar bevosita shikoyat predmeti o‘z vakolatiga kiradigan tarkibiy bo‘linma tomonidan, mazmunan ko‘rib chiqilishi belgilangan, qanoatlantirilgan, qanoatlantirilmagan va ko‘rmay qoldirilgan shikoyatlar va boshqa ma’lumotlarning statistik hisobi Tashkiliy-nazorat va strategik rejalashtirish boshqarmasi tomonidan yuritiladi.

46. Tashkiliy-nazorat va strategik rejalashtirish boshqarmasi o‘quv yili davomida kamida ikki marotaba shikoyatlar bilan ishlashning umumiy ko‘rsatkichlari, shikoyatlarda tez-tez ko‘tarilgan masalalar, shikoyatlarni ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha aniqlangan asosiy kamchiliklar va qoidabuzarliklar, talaba va tadqiqotchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, shuningdek, universitetda sifatni ta’minlash bilan bog‘liq jarayonlarga to‘sqinlik qiluvchi sabablarni bartaraf etish maqsadida umumlashtirib tahlil qiladi hamda Talabalarni qo‘llab-quvvatlash qo‘mitasiga axborot kiritadi.

47. Tahlil natijalari asosida tizimli muammolar aniqlanadi va shikoyatlarni keltirib chiqargan sabablarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar tegishli tarkibiy bo‘linmalar bilan hamkorlikda ishlab chiqiladi.

IX bob. Yakuniy qoidalar

48. Talaba va tadqiqotchilarning shikoyatlarini qabul qilish va ko‘rib chiqishni qonunga xilof ravishda rad etish, ularni ko‘rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish, yozma yoxud elektron shaklda javob yubormaslik, mazkur Nizom hamda qonun hujjatlariga zid qaror qabul qilish, shikoyat munosabati bilan qabul qilingan qarorning bajarilishini ta’minlamaganlik, shikoyat qiluvchi talaba va tadqiqotchilarning shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ularning roziligisiz oshkor etish, shikoyat qiluvchilarni shikoyat qilganligi munosabati bilan yoxud

bildirilgan fikri va murojaatidagi tanqid uchun ta’qib qilish, shuningdek, qonun hujjatlarini boshqacha tarzda buzish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

49. Mazkur nizom bilan tartibga solinmagan munosabatlarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonunida nazarda tutilgan qoidalar qo‘llanadi.

50. Murojaatlar to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari hamda mazkur Nizom qoidalarini buzganlik, xuddi shuningdek, tuhmat va haqoratdan iborat shikoyat berganlik belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi.

51. Ushbu Nizom kamida uch yilda bir marotaba Universitet kengashi tomonidan ko‘rib chiqiladi; zarurat bo‘lganda unga belgilangan tartibda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritiladi.